

RISHTON KULOLCHILIGIDA QO'LLANILADIGAN TUPROQ, MODDA-MA'DAN VA BOSHQA XOMASHYO NOMLARINI ANGLATUVCHI TERMINLAR

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Sharipova Gulchehra Erkinovna

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kulolchilik jarayonida qo'llanuvchi terminlar, jumladan tuproq, modda-ma'dan va boshqa xomashyo nomlarini anglatuvchi terminlarning sistem-struktur jihatdan yondashilib, ular etimologik jihatdan tabiati tadqiq etilgan. Tuproq turlari anglatuvchi terminlar misollar yordamida izohlangan.

Kalit so'zlar: Tuproq, etimologik lug'at, izohli lug'at, loyi guldon, chinni loy yoki oq loy, kesma koshin loy, kosagar loy, ko'zagar loy.

Ona tabiat saxiylik bilan yer yuziga in'om etgan tuproq mazkur hududda tabiiy holda kulolchilik uchun xomashyo sanaladi. Shuning uchun ham asrlar davomida mazkur hududda kulolchilik rivojlangan va ravnaq topib kelgan. Tuproq nafaqat kulollar uchun aziz balki, shoirlarning madhida ham tuproq mo'tabar sanalib, ona tuproq deb ulug'lanadi:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan, deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

A. Oripov

Islom dinida inson tuproqdan yaralganligi va yana tuproqqa qaytishi ham tuproqni aziz va mo'tabar qilgan. Jumladan , Qur'onning Haj surasi 5-oyatida bu haqida ma'lumotlar bor.¹⁰⁵ Bugungi kun olimlari ham bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida olib borgan izlanislari shuni ko'rsatadiki, inson organizmidagi to'qimalarda 26 xil element mavjud bo'lib, ularidan 6 tasi boshqalarga nisbatan juda ko'p miqdorda uchraydi. Ular: uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, oltingugurt moddalaridir. Inson tanasidagi 95% to'qimalarni ana shu 6 element tashkil qiladi. Mazkur elementlar tuproq tarkibida erkin holatda yoki brikmalar holatida uchraydi. Erkin holatdagi tuproq ham, inson organizmidagi to'qimalar ham, aynan bir xil

¹⁰⁵Куръони карим маъноларининг таржима ва таттафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур,-Тошкент:”Мунир” наширёти 332- бет.

elementlardan tashkil topganini hozirgi zamon ilmi ham tasdiqlamoqda¹⁰⁶.

Bu xususida shoirlar ham bir necha baytlar yozgan.

Sen-mendan	oldin	ham	tun-kun	bor	edi,
Aylanga	falak	ham	butun	bor	edi.
Tuproqqa	avaylab		qadamingni		qo'y,
Bu tuproq qora ko'z bir nigor edi.			Umar Xayyom		

Ota-bobolarimiz azal-azaldan inson va tabiat o'rtasida uzviy aloqa borligini tushunib yetishgan. Tabiat unsurlarini ulug'lashga, ularni asrash va sof holda saqlashga urinib kelishgan. Zardushtiyarning muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto»da: «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov – umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir», – deb yozilgan¹⁰⁷.

Mazkur unsurlardan biri sanalgan tuproq nafaqat kulollarning xomashyosi balki odamlar uchun rizq manbai hamdir. Insonning hayot kechirishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri tuproqdir. O'zbek tilida tuproq bilan bog'liq bo'lgan leksemalarning o'ziga xos qatlami mavjud. Tuproq so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da shunday izohlanadi:

Tuproq. 1. Yerning kovlash, chopish, haydash va sh.k. natijasida xosil bo'lgan yumshoq qismi, qatlami. 2. Yer qobig'inining o'simlik rizq olib o'sadigan ustki qatlami; yer. 3. O'lgan kishining xoki; xok. 4. Ma'lum yurt, o'lka, mamlakatga qarashli hudud¹⁰⁸. (O'TIL 4-jild, 193-bet) Tuproq leksemasining yuqoridagi 1 va 2-ma'nolari yer leksemasi bilan ba'zi o'rinnarda sinonomik qatorni tashkil etadi Sh. Rahmatullayev tuproq so'zining etimologiyasiga to'xtalib quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Tuproq- yerning mayda kukun holati. Tuproq olsang- oltin bo'lsin (Duo). Qadimgi turkiy tillarda ham shunday ma'noni anglatuvchu bu ot asli topraq(toprag') (PDP, 432; DS, 575), tupraq(Devon, I, 133, 434; III, 29) tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida bu so'zning birinchi shakli tarkibidagi **o** unli **u** unlisiga, **q(g')** undoshi oldidagi **a** unli **choziq** **a** unlisiga almashgan: tupraq(tuprag')>tupra:aq(tupra:ag')" DS dagi **topurg'on**(576-bet), KRS dagi topurak (732-bet) so'zlaridan ko'rinish turibdiki, **topuraq** oti qadimgi turkiy tildagi "kukun holatiga keltir"- ma'nosini anglatgan **topur** – fe'lidan(DS, 575: topray-, topash-)-(a)q qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmagani natijasida **topraq** shakli yuzaga kelgan: topur-

¹⁰⁶ @Gozilla bot.

¹⁰⁷ Йўлдошев К., Валиев Ш. "Авесто"нинг фалсафий ва иқтисодий гоялари.– Тошкент: Молия, 2003.– Б.10.

¹⁰⁸ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008.– Б. 193.

+ak=topuraq>topraq. Bu ot so'zlashuv nutqida **tupra:aq** saklida ham talaffuz qilinadi, bunda pr undoshlari o'rin almashadi. Tupraq> turpaq"¹⁰⁹.

Kulolchilikda asosiy xomashyo tuproq sanaladi. Bundan tashqari gil, oqtosh, oq qum, singari materiallar ham xomashyo sifatida ishlatiladi. Tuproq va loyning kulolchilikda qo'llanuvchi quyidagi 29 ta termini aniqlandi: **sof tuproq/sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimir tuproq, qizil loy tuproq, tuproq, sho'tuproq/sho'rxok, ohak, ohaki oqsil, loyqa, kesak, guvalak, gil, gilmoya, gilvata, bo'tana, loyi guldron, chinni loy, oq loy, koshin loy, kesma koshin loy, jusha loyi, pat loy, tovoq loy, sershira loy, kosagar loy, ko'zagar loy, loy, yog'li loy, plastik yog'li loy** singari. Quyida ularning ayrimlariga izoh keltiramiz.

Loyi guldron - sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldronlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy yoki oq loy – yarimfayans bo'lib, qoramtilor oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o'tga chidamli qoramtilor loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil koshinlar tayyorlanadi. *Koshin loy* – shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qog'ozini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy – ko'p miqdorda plastik yog'li loy va oz miqdorda sog' tuproqdan qilingan loy. Undan xum, guldron, ko'za va boshqalar tayyorlanadi.¹¹⁰

Demak, kulolchilik sohasida qo'llanuvchi terminlar tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва татафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур.-Тошкент:"Мунир" наширеёти 332- бет.

2. .Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.- Тошкент. Мехнат 1991. 290-бет

¹⁰⁹ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологији лугати. - Тошкент. Университет, 2009. Б-280

¹¹⁰ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.- Тошкент. Мехнат 1991. 290-бет

3. Йўлдошев Қ., Валиев Ш. "Авесто"нинг фалсафий ва иқтисодий ғоялари.– Тошкент: Молия, 2003.– Б.10.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 193.
5. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологији лугати. - Тошкент. Университет, 2009. Б-28
6. @Gozilla bot.